Tarjimonlar ma'lumotni qayta ishlashning ikkala usulini nafaqat asliyat matnini tushunish (dekodlash) da, balki tarjima matnini shakllantirish (kodlash) yoki yaratish jarayonida ham qo'llashadi. Bunday holda, fon bilimlarini qo'llash TTda eng aniq ekvivalentlarni tanlashga yordam beradi. Shunday qilib, agar birinchi bosqichda tarjimon chet tilidagi ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish uchun kengroq kontekstni yaratsa, u holda tarjima matnini yaratish jarayonida u tarjima tilida yangi kontekstni yaratadi va uning yetarlicha adekvatligi va aniqligini ta'minlaydi. TM (tarjima matni)ni shakllantirish jarayonida ma'lumotni qayta ishlashning induktiv usulidan foydalanish TTdagi mavzu bo'yicha bilim darajasi yetarli bo'lmaganda, tarjimon ma'lum bir janr yoki uslubning matn xususiyatlarini yo'qotishiga olib boruvchi tarjima tili qonunlariga rioya qilishga majbur.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Bassnett S. Translation Studies. – London, 2002. – 188 p.
2. Bell R.T. Translation and Translating: Theory and Practice. – London, 1993. – P. 56.
3. Gutt E.A. Translation and Relevance. Cognition and Context. – Oxford, 2000. – 128 p.
4. Holmes J.S. Translated Papers on Literary Translation and Translation Studies. – Amsterdam: Rodopi, 1988. – 117 p.
5. Jaaskelainen R. Tapping the Process. An Explorative Study of the Cognitive and Affective Factors Involved in Translating. – Joensuu, Finland, 1999. – 268 p.

¹Jaaskelainen R. Tapping the Process. An Explorative Study of the Cognitive and Affective Factors Involved in Translating. – Joensuu, Finland: University of Joensuu, Publications in Humanities, 1999. – 268 p.

6. Katan D. *Translating Cultures: an Introduction for Translators, Interpreters, and Mediators*. – Manchester: St Jerome, 2004. – P. 124.
7. Neubert A. & Shreve G.M. *Translation as Text*. – London: Kent State University Press, 1992. – P. 14.
8. Минченков А.Г. Когниция и эвристика в процессе переводческой деятельности. – Санкт-Петербург: Антология, 2007. – 256 с.

IMPLICATURE OF A LITERARY DISCOURSE

Rakhmatova Mekhriniso Musinovna

PhD, Docent , Bukhara State University, Uzbekistan

(903400005) 2000niso@gmail.com

In literature, implicature is used by authors to convey meaning beyond what is explicitly stated. It allows writers to convey subtext, irony, humor, and other literary effects that add depth and richness to the text. A reader's understanding of these implicit meanings relies on their ability to recognize and interpret implicature, which requires a sensitivity to context, social norms, and linguistic cues.

The importance of implicature in communication and literature lies in its ability to enhance communication and understanding by conveying meaning beyond the surface level of words. It adds nuance, complexity, and layers of meaning to language, allowing for more sophisticated social interactions and more richly textured literary works.

The importance of resistance literature in the USA can be attributed to reasons as stated below. It gives a voice to the marginalized and oppressed: Resistance literature often portrays the experiences of those who are considered outside the mainstream, such as minorities, the working class, and women. By highlighting their struggles and their perspectives, it gives these groups a voice and helps to bring attention to their issues. Resistance Literature encourages critical thinking: Resistance literature encourages readers to question authority and the status quo. It often offers alternative perspectives on established ideas and values and encourages readers to think critically about the world around them. It inspires social change: Resistance literature often advocates for social change by exposing the flaws and injustices of the

current system. It can inspire readers to take action and work towards achieving greater equality and justice. It celebrates diversity: Resistance literature often celebrates the diversity of the human experience and challenges stereotypes and prejudices. It helps readers to understand and appreciate different cultures, experiences, and perspectives. It serves as a record of history: Resistance literature often documents significant cultural and political moments in history. It can provide insight into the social and political climate of a particular time period and can be an important resource for future generations [14].

Overall, resistance literature plays an important role in challenging dominant ideologies and promoting social justice, equality, and diversity.

1. "The Great Gatsby" by F. Scott Fitzgerald: In this novel, the character Nick Carraway often implies meaning through his narration. For example, he describes Gatsby's parties as "a succession of elaborate tea-parties" to imply that they were not as lively as they appeared on the surface.

2. "The Catcher in the Rye" by J.D. Salinger: The main character, Holden Caulfield, often uses irony to convey his true thoughts and feelings. For example, he says, "I'm the most terrific liar you ever saw in your life" to imply that he values honesty above all else.

3. "To Kill a Mockingbird" by Harper Lee: The character of Atticus Finch often uses understatement to convey his disapproval of racism and injustice. For example, he says, "There's a lot of ugly things in this world, son. I wish I could keep 'em all away from you" to imply that he is deeply troubled by the prevalence of racism in their society.

4. "The Adventures of Huckleberry Finn" by Mark Twain: In this novel, Twain uses irony to critique the hypocrisy of Southern society. For example, when Huck and Jim are forced to disguise themselves as women, Huck comments that Jim "was most as enough of a lady as any of them" to imply that the societal expectations of gender roles were arbitrary and meaningless.

These examples are just a few of the many ways that implicature is used in American literature to convey deeper meaning and add layers of complexity to the text

An American author and television writer Suzanne Collins is the author of bestseller. She started working as a children's writer in Television Shows. And wrote books for children[1,3].

Her most famous bestseller is Hunger Games books (trilogy). "Hunger Games" is the first book of HUNGER GAMES trilogy which is best-seller book known worldwide. This action packed and thought provoking trilogy includes a lot of genres in it, like young-adult fiction, science fiction, thriller, dystopian fiction, adventure. However, the genre of book I am writing about, which is the first one, is mostly dystopia and adventure science fiction.

The reason of Hunger Games to be dystopian is apparent from the name of the country, *Panem*. The author called the country like that not because she liked it, but for the reason that *Panem* is the word derived from Latin which means "bread. It refers to the fact that the residents of the country are starving and have little things to eat [10,4]. And also, should be noted that gladiatorial games existed in Ancient Rome that were called *panem et circences* (bread and circuses) it bears the resemblances of the games in the book which is called *hunger games*. The phrase refers to the Roman Caesars' strategy of quelling public discontent by providing the people with plenty of food and entertainment. It is defined as a science fiction due to the newest futuristic technologies and settings like Hovercraft and Teleporting devices. The author, Suzanne Collins is trying to describe the situations of the authorities being rude and playing with lives of residents; the way some people forgetting the world around, how authorities make them not to pay attention to the *poverty and violence* going on around. The totalitarian government of Panem is who holds all the power over the districts. The citizens have no say over their lives or what the government will impose on them. The message of the novel is that not any violence can succeed due to the reason that every brutality leaves scars on whatever it can be, the scars cause revolution which is inevitable. Worthy to mention, no revolution blows over without personal sacrifice. And only patience and love can ease the pain of it Atmosphere: The tone of narration begins to be scary and dark. This is to be kept whole novel. The brutal atmosphere could have made people serious and dangerous, however they all keep on together. People knowingly try not to change as they know that it is the only thing Capitol, the authorities, is waiting for. It is clearly shown in the words of one of the main characters - Peeta Mellark:

"I don't want them to change me in there. Turn me into some kind of monster that I'm not." [1,234]

Peeta recognizes this atmosphere and chooses to preserve his own identity, regardless of the games' atmosphere. He is mainly concerned with how the environment will impact who he actually is as a human being. The atmosphere created in The Hunger Games is one of desperation and debasement

List of used literature:

1. Collins S. "The Hunger Games" (the first book of trilogy). New York: 2008 –P.384
2. Collins S. The Ballad of Songbirds and Snakes New York: 2020 – P.331
3. Collins S. Catching Fire. New York: Scholastic inc, 2009 –P.364
4. Mentz S. *Romance for sale in early modern England: the rise of prose fiction*. Routledge. 2017
5. Musinovna, R. M. (2021). AESTHETIC VALUE IN ENGLISH, UZBEK AND TAJIK NATIONAL CULTURES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2 (05), 380-389. <https://scholar.google.com/scholar?cluster=5865546397028567962&hl=en&oi=scholar>

KOGEZIYA VA KOGERENSIYA HAQIDA NAZARIY QARASHLAR

Saidova Muxayyo Umedilloloyevna

BuxDU dotsenti, f.f.f.d.

Badiiy diskursda kogeziya va kogerensiya asar matnining yaxlitligi va ma'nosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular asar tuzilishi, g'oya uzviyligi va mantiqiy bog'liqligini ta'minlaydi. Kogeziya va kogerensiya haqidagi ta'limotlar matnshunoslik va tilshunoslikda matnning yaxlitligi va bog'liqligini tahlil qilish uchun asosiy tushunchalar hisoblanadi. Ushbu tushunchalar matnshunoslikning alohida yo'nalishlari sifatida XX asrda rivojlandi. M.A.K. Halliday va R. Hasan kogeziya va kogerensiya nazariyasini matnshunoslikda chuqur o'rgangan va ularni ajratib, alohida ta'riflagan. Halliday va Hasan matnning grammatik va leksik vositalar orqali yuzaki bog'liqligini ifodalaydi. Ular kogeziyaning 5 asosiy turini ko'rsatadi: *referentsiya (ishorat)*, *ellipsis (gap qisqarishi)*, *bog'lovchi vositalar (conjunctions)*, *substitutsiya (bir elementni boshqa vosita*

bilan almashtirish), leksik bog'liqlik (*repetitsiya, sinonimiya, antonimiya*). Kogerensiya esa matnning ma'nosini anglatadi va o'quvchining idrokida shakllanadigan yaxlitlik hisoblanadi. Hallidayning fikricha, kogerensiya matnni kontekstual va semantik jihatdan bir butun qiluvchi tushunchadir.

Van Deyk va Kintsch kogerensiyani chuqurroq tushunish uchun uni psixologik va kognitiv jarayonlar bilan bog'lashadi. Ular o'quvchining matnni idrok etishida kogerensiyaning quyidagi turlarini ajratadilar: *Global kogerensiya* - matnning umumiy mavzusi yoki g'oyasi bilan bog'liqlik. Masalan, hikoyadagi har bir epizod umumiy mavzuni yoritadi. *Lokal kogerensiya* - matndagi gaplar va jumlar o'rtasidagi sabab-oqibat yoki mantiqiy aloqadorlik. Van Deykning fikricha, matn o'quvchi ongida tarkib topadigan ma'no tizimi bo'lib, uning mantiqiy bog'liqligini o'rganish muhimdir.

Beaugrande va Dresslarning matn yaxlitligi nazariyasi nuqtai nazaridan matnni yaxlit tizim sifatida tushunish uchun bir qancha mezonlarni belgilashadi. Ularning fikricha, kogeziya va kogerensiya matn yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. *Kogeziya* - matnning yuzaki grammatik va leksik jihatdan bog'lanishi bo'lsa *kogerensiya* - matnning mazmuniy va semantik jihatdan bog'liqligi deb ta'riflashadi. Ular kogerensiyani *bilim asosida tashkil qilinadigan jarayon* deb hisoblashadi. Matnni tushunish uchun o'quvchi o'z bilim va tajribasiga asoslanadi.

Keyingi olimlar Brown va Yule matnning muloqotdagi vazifasini o'rgangan. Ular kogeziya va kogerensiyani matnning kommunikativ maqsadi bilan bog'laydi. *Kogeziya* - lingvistik vositalar orqali matnning mantiqiy bog'liqligi, *kogerensiya* - matnni tushunishda kontekst va o'quvchining bilimlari bilan uyg'unlik deb yuritishadi. Ularning fikricha, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun matnning semantik bog'liqligi muhim.

Rankema kogeziya va kogerensiyani lingvistik va pragmatik jihatdan o'rganadi va bu *tabaqalashtirilgan yondashuv* sifatida fanga o'rganiladi. *Lingvistik bog'liqlik* bu so'zlar va gaplar o'rtasidagi grammatik aloqadorlik va *pragmatik bog'liqlik* esa matnning kontekstual mantiqiyligi va foydalanuvchi ehtiyojlariga mos kelishi deb ta'kidlashadi.

Kognitiv tilshunoslikda kogerensiya ma'no qurilish jarayonida o'quvchining fikrlash jarayoniga asoslanadi. Fauconnier va Turner

kogerensiyani mental xaritalar va ma'no sathlarini uyg'unlashtirish sifatida ko'radi. Bundan tashqari, kogeziya va kogerensiyaga oid boshqa yondashuv va qarashlar ham mavjudki, ular ushbu hodisalarga boshqacha qarashadi. *Formalistik yondashuv* - kogeziya matnning formal (grammatik va leksik) tomoniga asoslanadi, kogerensiya esa semantik ma'noda matnni yaxlit qilishni anglatadi deb qaraydi. *Funksional yondashuv* Matnning kommunikativ vazifasi bilan bog'liq. Masalan, badiiy matnda obrazlar va voqealar orasidagi ma'noli bog'liqlik kogerensiyani ta'minlaydi. *Pragmatik yondashuv* - matnni tushunish uchun o'quvchining ehtiyojlari, kontekst va maqsadi muhim deb hisoblaydi.

Kogeziya badiiy matnning grammatik, leksik va sintaktik darajadagi bog'liqliklarini ifodalaydi. Bunda olmoshlar, bog'lovchilar, yuklamalar va shakl o'zgarishlari orqali gaplar orasidagi bog'liqlik yaratiladi. Masalan: *U sahroga qaradi. U yerda hech kim yo'q edi.* Ushbu misolda "u" olmoshi grammatik kogeziya vositasi sifatida ishlatilgan. Sinonimlar, antonimlar va takror (so'z yoki iborani takrorlash) orqali matnning uzviyligi ta'minlanadi. Gaplar tuzilishidagi o'xshashlik yoki parallelizm badiiy matnning bog'liqligini ta'minlaydi. Masalan: *Tongda qushlar sayraydi, daraxtlar shivirlardi.*

Kogerensiya asar mazmunining mantiqiy va konseptual bog'liqligini anglatadi. Bu qism o'quvchining matnni tushunishi uchun zarur hisoblanadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, har bir epizod umumiy syujet yoki mavzuga xizmat qiladi. Semantik uzviylik, obrazlar va voqealarning mazmuniy bog'liqligi nazarda tutiladi. O'quvchi interaktsiyasi, kogerensiya o'quvchining matn mazmunini mustaqil ravishda tushunishi va mantiqiy bog'liqlarni topishiga imkon beradi.

Shunday qilib, badiiy diskursda kogeziya va kogerensiya nafaqat matnning strukturasi, balki uning estetik va ma'naviy qiymatini shakllantiruvchi muhim unsurlardir, Kogeziya va kogerensiya haqidagi mavjud ta'limotlar matnning grammatik, leksik, semantik va pragmatik jihatdan qanday bog'liq ekanligini tushuntiradi. Halliday va Hasanning lingvistik yondashuvi, Van Deykning kognitiv yondashuvi va Beaugrande-Dresslarning kommunikativ mezonlari bu masalani turli nuqtai nazarlardan yoritadi. Har bir yondashuv matnning yaxlitligini tahlil qilishga turlicha uslubda yondashadi, ammo ularning barchasi bir narsani ta'kidlaydi: kogeziya va kogerensiya matnning mantiqiy va semantik bog'liqligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, G., & Yule, G. (1983). "Discourse Analysis". Cambridge: Cambridge University Press.
2. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). "Cohesion in English". London: Longman.
3. Renkema, J. (2004). "Introduction to Discourse Studies". Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
4. Yule, G. (1996). "Pragmatics" Oxford: Oxford University Press.

THE INFLUENCE OF GRAMMATICAL COHESION ON STRUCTURAL COHERENCE IN ENGLISH LITERARY DISCOURSE

Saidova Mukhayyo Umedilloevna,

Associate Professor of the Department of English Linguistics,

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

Sayfiyeva Madina Saydullo qizi,

*First-year Master's student specializing in Linguistics (English
Language)*

Annotation: This thesis explores the role of grammatical cohesion in maintaining structural coherence within literary discourse. Focusing on O. Henry's "Two Thanksgiving Day Gentlemen", the study examines how cohesive devices such as reference, substitution, and conjunctions operate in the narrative to ensure continuity of meaning, even in a text with a fragmented structure. By analyzing these devices, the paper demonstrates how O. Henry crafts a coherent narrative flow, despite abrupt shifts and disjointed events, through strategic use of grammatical cohesion.

Key words: Grammatical cohesion, structural coherence, substitution, conjunctions, ellipsis, cohesive devices, literary discourse, textual analysis, narrative structure, cause and effect, cohesion in literature, linguistic analysis, fragmented narrative, textual continuity, sentence-level cohesion, pronoun reference, substituting nouns, discourse markers, narrative flow, logical connections, transitional devices, story cohesion, literary coherence, sentence cohesion, language in literature, structural analysis, literary techniques, smooth narrative transitions, event sequencing. In literary texts, coherence is achieved not only through thematic consistency but also through

grammatical cohesion. Grammatical cohesion involves the use of linguistic tools that link sentences, paragraphs, or larger units of discourse, maintaining a smooth flow of meaning. O. Henry's "Two Thanksgiving Day Gentlemen" is a short story with a fragmented structure, containing numerous shifts in focus and abrupt changes in events. Despite this, the narrative maintains coherence due to O. Henry's effective use of grammatical cohesion. This paper aims to analyze how reference, substitution, conjunctions, and other cohesive devices contribute to the story's overall structural coherence.

Grammatical cohesion, as defined by Halliday and Hasan (1976), includes several devices that help tie the parts of a text together, making it easier for readers to follow the narrative¹. These devices can be broadly categorized as reference (the use of pronouns and other referring expressions to maintain continuity and avoid repetition), substitution (the replacement of words or phrases to prevent redundancy and create smooth transitions), conjunction (the use of conjunctions to link ideas, events, or clauses, thus establishing relationships between them like cause and effect, addition, contrast), ellipsis (the omission of words that are understood from the context, maintaining cohesion while avoiding unnecessary repetition). These devices are crucial in ensuring that, despite potential fragmentation in a text's structure, the meaning remains clear and accessible to readers.

O. Henry's "Two Thanksgiving Day Gentlemen" is a story about two men who meet each year on Thanksgiving Day under unusual circumstances. The story's structure is not linear and is characterized by sudden shifts in time and focus. Despite this, the narrative is held together through careful grammatical cohesion.

One of the most prominent cohesive devices in the story is reference. Throughout the text, O. Henry uses pronouns to refer back to characters, maintaining continuity without redundancy. For example, in the following passage: "*The two gentlemen were old acquaintances, but they had never met on Thanksgiving Day before. This was the first time they had ever met in such a strange manner.*"² In this passage, the second sentence's use of "they" refers to "the two gentlemen" from the first sentence, establishing continuity and linking the two parts of the

¹ Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). "Cohesion in English". London: Longman.

² O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("Two Thanksgiving Day Gentlemen")

text seamlessly. Similarly, O. Henry uses definite articles ("the") and demonstrative pronouns ("this") refer to specific objects and actions, which ensures clarity and coherence in the narrative. For instance: *"The beggar's eyes, which had been wandering around the street, finally rested on a young man who was holding a large turkey. This man, in turn, smiled and greeted the beggar."*¹ Here, "this man" refers directly back to the "young man" mentioned earlier, ensuring that the reader knows exactly who is being discussed. Substitution is another key grammatical device used by O. Henry to maintain coherence. By replacing words with more general terms or using ellipsis, he avoids repetitive phrases and enhances the fluidity of the story. For example: *"The young man handed him the turkey, and the beggar, with a smile, took it and thanked him."*² Here, the phrase "took it" substitutes for "the turkey" reducing redundancy while maintaining clarity.

In another example, substitution occurs when O. Henry refers to the same object in different ways: *"The gentleman handed the beggar a coin and then, without a word, walked away. The beggar, holding the coin, smiled softly to himself."*³ Here, "the coin" is substituted with "it," preventing the repetitive mention of the same object and making the narrative flow more naturally. Conjunctions are essential in linking ideas and events within the narrative, creating relationships between actions, causes, effects, and contrasts. O. Henry skillfully uses conjunctions like "and", "but", "so", and "because" to connect ideas and ensure that the story moves logically, despite its fragmented structure. For example: *"The two gentlemen had been exchanging polite conversation, but the beggar had an entirely different agenda in mind."*⁴ Here, the conjunction "but" introduces a contrast, shifting the focus from the gentlemen's polite exchange to the beggar's intentions. This creates a logical transition between two different parts of the story, maintaining coherence. Another instance is *"The young man offered*

¹ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("Two Thanksgiving Day Gentlemen")

² O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("Two Thanksgiving Day Gentlemen")

³ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("Two Thanksgiving Day Gentlemen")

⁴ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("Two Thanksgiving Day Gentlemen")

him the turkey because he knew that the beggar was hungry.”¹ In this case, “because” establishes a cause-and-effect relationship, linking the man’s action to his motivation, which helps readers understand the reasoning behind the characters’ behaviors.

O. Henry also employs ellipsis to avoid redundancy and streamline the narrative. By omitting information that is easily inferred from the context, he maintains pacing and avoids over-explaining, which might disrupt the flow of the story. For instance, after the beggar receives the turkey, the narrative continues without explicitly stating what happens next, as the action is clear to the reader. “*He smiled and walked away, the turkey in his hands.*” Here, the omission of further details (e.g., “the beggar walked away with the turkey”) speeds up the narrative and allows readers to infer the next steps without redundant explanation.

In “Two Thanksgiving Day Gentlemen”, grammatical cohesion ensures that, despite the story's fragmented structure and occasional shifts in time and focus, readers can follow the plot and understand the relationships between characters and events. The seamless use of reference, substitution, conjunctions, and ellipsis helps the story maintain a logical flow and prevents confusion. The careful balance between the fragmentation of events and the cohesion between sentences creates a compelling, well-structured narrative. The shifts in focus, such as moving from the interaction between the two men to the beggar’s perspective, are made possible by these grammatical devices, ensuring that each shift is coherent and understandable. Without these cohesive devices, the fragmented structure could potentially confuse readers, but O. Henry’s strategic use of grammar ensures clarity. Grammatical cohesion plays an essential role in maintaining structural coherence in literary texts. In O. Henry’s “Two Thanksgiving Day Gentlemen”, the use of reference, substitution, conjunctions, and ellipsis ensures that the fragmented structure of the story remains coherent. By employing these grammatical devices, O. Henry crafts a narrative that flows smoothly and logically, despite its shifts in focus and unexpected turns of events. This analysis demonstrates that grammatical cohesion is vital in ensuring that even in stories with

¹ O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“Two Thanksgiving Day Gentlemen”)

disjointed or unconventional structures, readers can easily follow the narrative and grasp its underlying meaning.

REFERENCES:

1. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). "Cohesion in English". London: Longman.
2. O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("Two Thanksgiving Day Gentlemen")
3. Brown, G., & Yule, G. (1983). "Discourse Analysis". Cambridge: Cambridge University Press.
4. Cook, G. (1994). "Discourse and Literature: The Interplay of Form and Mind". Oxford: Oxford University Press.

"TOM SAWYERNING SARGUZASHTLARI" ASARINING STILISTIK TAHLILI.

Saidova Muxayyo Umidullayevna,

*Ingliz tilshunosligi kafedراس dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Tursunova Sarvinoz G'afurovna,

lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mark Twainning "Tom Sawyerning sarguzashtlari" asarining stilistik tahlili bo'yicha yozilgan ushbu tezisdа muallifning o'ziga xos yozuv uslubi, til vositalari va badiiy ifoda usullarining asar syujeti va obrazlarini yaratishdagi roli tahlil qilinadi. Tezisdа "Tom Sawyerning sarguzashtlari" asarining stilistik tahlili orqali Mark Twainning o'ziga xos yozuv uslubini va uning asarlarining adabiy ahamiyatini ochib berishga harakat qilinadi. Tadqiqotning natijalari asarni chuqurroq tushunishga va muallifning iste'dodini baholovga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *do'stlik, erkinlik, sarguzasht, oila, jamiyat tanqidi, o'z-o'zini topish, fikrlar va tushunchalar, bolalik, tabiat, raqobat, ilhomlantiruvchi xotiralar.* **Kirish qism.** Mark Twainning "Tom Sawyerning sarguzashtlari" asari jahon adabiyoti xazinasida bo'lib, nafaqat bolalar uchun qiziqarli sarguzashtlar hikoyasi, balki Amerika realiyatini, inson tabiatini va tilning kuchi haqida chuqur fikrlarni aks ettiruvchi murakkab badiiy asardir. Ushbu tezisdа asarning stilistik xususiyatlari, ya'ni muallifning til va uslubdan foydalanishining asar syujeti, personajlari va umumiy ma'nosini yaratishdagi roli chuqur

tahlil qilinadi. Tadqiqotda Mark Twainning realizm va romantizm elementlarini mahorat bilan uyg'unlashtirish uslubi, uning o'ziga xos yumor va kinoya san'ati, Missisipi daryosi bo'yidagi hayotning yorqin tasvirlari va bolalik dunyosini aks ettirishdagi til vositalari o'rganiladi. Tom Sawyer - Mark Tven¹ tomonidan yozilgan, Amerikada 19-asrning o'rtalarida joylashgan klassik roman. Ushbu asar, bolalik va o'smirlik davrining muhim jihatlariga e'tibor qaratadi, shuningdek, erkinlik, do'stlik va jamiyatning noaniqliklari kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Romanning bosh qahramoni Tom Sawyer, aqlli, jozibali va qizg'in xarakterni belgilovchi, doimo yangi sarguzashtlarni izlaydigan o'smirdir. Ushbu tezisda Tomning shaxsiyati va sarguzashtlaridagi asosiy temalar, shuningdek, Amerikaning o'sha davrdagi jamiyati va axloqiy qadriyatlari haqida batafsil tahlil qilinadi. Tom Sawyer orqali Tven, bolalik davrining qiyinchiliklari va o'sayotgan shaxsning o'z o'rnini topish jarayonini ko'rsatadi. Roman, faqat bolalar uchun emas, balki kattalar uchun ham qiziqarli va ta'sirli bo'lgan zamonaviy tarbiya va axloqiy masalalarni ko'taradi. "Tom Sawyer" asari Mark Tvenning eng mashhur asarlaridan biri bo'lib, u yosh bolalarning sarguzashtlari, ularning xavotir va qiziqishlari, shuningdek, o'smirlik davridagi qarashlarini tasvirlaydi. Tom Sawyerning sarguzashtlari bolalarning boshqaruvga, mustaqillikka va maqsadga intilishini aks ettiradi. Asardan parcha keltiradigan bo'lsak, Tom va uning do'stlari yovvoyi tabiatda o'ynab yurgan paytlari haqida tasavvur qilish mumkin. Quyida Tom va uning do'stlari qizg'in sarguzashtlari haqida yozilgan qismni stilistik jihatdan tahlil qilamiz. *"Tom va uning do'stlari bir kunda daryo bo'yida o'tirib, o'tirgan joyida baliq tutmoqchi bo'lishdi. Tom, bu ishni juda qiziqarli deb bilib, do'stlarini qo'shishga undadi. Ularning ko'zlari jazirama quyoshda porlaydi, suzish uchun albatta, daryoning salqin suviga sakrab tushish g'oyasi ham ularni hayajonga solib qo'ydi."*²

Stilistik Tahlil: Tasviriy uslub: "daryo bo'yida", "jazirama quyoshda", "salqin suv" - bu ifodalar joyni va vaqtni tasvirlaydi, o'quvchi o'zini ushbu muhitda his qilib, sahnani aniq tasavvur qilish imkoniga ega bo'ladi. Hissiy tillar: "hayajonga solib qo'ydi" - bu ifoda

¹ Mark Tven (asl ismi Samuel Langhorne Clemens) - o'z davrining eng mashhur amerikalik yozuvchilaridan biri bo'lib, uning asarlari ko'plab sevib o'qiladi.

² Twain, Mark. *The Adventures of Tom Sawyer*. (1876) - Asosiy manba, asarning asl matni.

bolalarning chalg'ishi va qiziqishni his qilishini aks ettiradi, bu bilan Tomning do'stlariga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi.

Qisqartma va takror: "ularning ko'zlari jazirama quyoshda porlaydi" - ko'zlarining porlashi bolalarning hayajonini yanada oshiradi va o'quvchini ularning yoqimli va befarq mutolaasi bilan tanishtiradi. Maqsad va intilish: Tomning do'stlarini baliq tutishga undashi, ularning faoliyatga bo'lgan qiziqishini va kuchli ruhiyatini aks ettiradi. Bu, shuningdek, bolalarning o'zaro munosabatlarining mustahkamligiga dalil bo'ladi. Metafora va tasvir: "suzish uchun albatta, daryoning salqin suviga sakrab tushish g'oyasi" - bu yerda "suv" metafora sifatida ishlatiladi, bu suzish jarayonining hayajoniyligini va zavqini ifodalaydi. Ushbu parcha, Tom Sawyer asarining bolalar sarguzashtlarini, ularning hissiyotlarini va qiziqishlarini ifodalaydi. Stilistik qurilmalar orqali Tven o'quvchini Tom va uning do'stlari dunyosiga olib kiradi, ularning badiiy qiziqishini ochadi va o'smirlik yo'lidagi qiyinchiliklarni ko'rsatadi. Asar davomida bolalarning insonga xos qiziqishlari va hayajonlari aks ettiriladi, bu esa o'quvchining yuragida samimiy va jo'shqin his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Xulosa. Mark Tvenning "Tom Sawyer" asari, bolalik va erkinlik, sarguzasht va do'stlik haqida hikoya qiladi. Asarda Tomning qiziqarli va ba'zan jiddiy sarguzashtlari orqali, yosh bolalarning ichki dunyosi, ularning orzulari va istiqbollari chuqur nazar tashlanadi. Tom va uning do'sti Heklberi Finn o'z hayotini oddiy muammolar va qiziqarli sarguzashtlar bilan to'ldirib, o'z shahrida o'z joylarini topishga harakat qilishadi. Asarda ko'rinadigan asosiy temalar-erkinlik, do'stlik, va individualizm -bolalarning o'sish jarayonida qanday ahamiyat kasb etishini ochib beradi. Tomning o'ziga xosligi va erkinlikka intilishi, uning shaxsiy rivojlanish yo'lida muhim jihatlardir. Shuningdek, asarda kattalar dunyosining ikkiyuzlamachiligi va ichki qarama-qarshiliklari ham tanqid qilinadi. Natijada, "Tom Sawyer" nafaqat bolalikning go'zalligini va sarguzashtlarini, balki o'smirlik davridagi muammolarni va hayotning murakkabliklarini ham chuqur ifodalaydi. Asar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmay, yosh avlod uchun hayot va axloqiy qadriyatlar haqida o'ylashga imkoniyat yaratadi. Tom Sawyer belgilab bergan ezgu g'oyalar va narsalar haqidagi xayol o'zgarishlari, bolalik yillarining ahamiyatini va ularning hayotga tayyorlashdagi rolini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Twain, Mark. *The Adventures of Tom Sawyer*. (1876) - Asosiy manba, asarning asl matni.
2. Twain, Mark. *The Adventures of Huckleberry Finn*. (1884) - Tom Sawyer bilan bog'liq personajlar va mavzularni kengaytirgan asar.
3. McCullough, David. *The Great Bridge: The Epic Story of the Building of the Brooklyn Bridge*. (1972) - Mark Tvenning asarlarini kontekstdagi ijtimoiy va tarixiy manzaralar.
4. Ryll, Sylvia. "Tom Sawyer's Moral Development." in *The Mark Twain Journal*, Vol. 38, No. 1 (2000) - Tom Sawyerning axloqiy rivojlanishi va uni tahlil qilish.

**INSON TUYG'ULARI IFODALANISHINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

A.A.Haydarov
(BuxDu professori)
M.U.Yodgorova
(II bosqich magistr)

Zamonaviy tilshunoslikda tilning o'ziga xos an'anaviy xususiyatlarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqatidan nazardan lingvomadaniy yo'nalishda yuzaga kelgan har xil etnoslar madaniy turmush shakllarining aks ettirilishini tadqiq etish eng muhim vazifalardan sanaladi. Noqardosh tillar- ingliz va o'zbek tillari sohiblarining milliy lisoniy tafakkurida inson tuyg'ularining verballashuvi va qadriyatlari chog'ishtirma tahlil qilish eng muhim masalalar qatorida turadi. Ushbu masalani o'rganish lingvomadaniyat olami bilan bog'liq bo'lib, lisoniy ifodaga ega va u lingvomadaniy o'ziga xoslik kasb etadi. Jahon tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik va konsept muammolarining nazariy talqini o'tgan asrning 70-80-yillarida boshlangan edi. Bu boradagi nazariy qarashlar, ilmiy gipotezalar xorijiy va rus tilshunosligida allaqachon shakllangan. L.Barsalou, R.Jekendof, R.Jekebson, R.Langaker¹,

¹ Barsalou L.W. Framus, Concepts and conceptual fields, //-Hillsdale 1992,-P.21-24; Jackendoff.R. What is a concept? //Hillsdale 1992, -P.191; Jacobson R.O. Language is literature, London, 1987,-548 p; Langacker R.W. Concept, Image and Symbol; The cognitive basis of grammar, Berlin, 1991, -P.390.

E.Rosh, Yu.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, E.Kubryakova, K.Koshyalnekiiy kabi olimlarning tadqiqotlari aynan konsept muammolariga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu lingvistik tushuncha o'zbek tilshunoslarining ilmiy asarlaridan ham keng o'rin olgan. Ayniqsa, D.Ashurova, Sh.Safarov, O'.Yusupov, A.Abduazizov, A.Mamatov, N.Djusupov, N.Toxtaxodjayevalarning ilmiy ishlarida ma'lum konseptlar tahlil va talqin qilingan. Ma'lumki, ong inson ruhiyatining oliy shakli hisoblanadi, u dunyoga munosabatning o'ziga xos usuli sifatida qayta o'zgarishlar va obyektiv qonuniyatlar haqidagi bilimlarni anglash jarayonida shakllanadi. Refketiv xarakterga ega bo'lgan ong "psixik jarayonlarning yuksak darajadagi sistemasi sifatida yuzaga chiqadi, uning yordamida inson o'zini o'rab turgan olamni nafaqat idrok etadi va his-tuyg'u bilan o'z munosabatini bildiradi, balki ularning barchasini o'ziga xos jihatdan qayd qiladi.¹ Shuni alohida qayd etish lozimki, tilning asosiy birligi so'zdir. Inson so'zni eshitish bilan, uni ongli ravishda borliqdagi biror tushuncha bilan bog'laydi. So'zning aytilishi va ifodalanishi, tushunchalar hamda ularning umumlashuvi natijasida hosil bo'lgan ma'no doimo tilda voqelanadi. Shu bilan tildagi so'zlar mazmunida shakllanayotgan lisoniy ongda olamning milliy obyektiv obrazi o'z ifodasini topadi. Ongning muhim belgilaridan biri shuki, u insondagi tushunib yetilgan ruhiy tuyg'u yoki hayotiy bilimdir. Inson tuyg'ulariga munosabat, inson ma'naviy tushunchalarining mavjudligini aniqlovchi xususiyatlar deb qarash mumkin. Bu esa inson tuyg'ulari konseptining semantik tahlil etilishini taqozo etadi. Inson tuyg'ulari tabiatan turlicha bo'ladi. Masalan, "muhabbat" konsepti shular jumlasidandir. "Muhabbat" konsepti turli lug'atlarda turlicha talqin etiladi. M.M.Makovskiyning "Историко-этимологический словарь современного английского языка" nomli lug'atida "love" muhabbat konseptining etimologik ma'nolari asosan "bog'lanish", qisman "yig'ish, intilish", shuningdek "sehrgarlik, sehr qilish", olov, suv, sugohlik, harakat" kabi ilohiy olamdagi barcha unsurlar bilan bog'langan bo'ladi degan izohlar ham mavjud.² Mehr-muhabbat konseptiga xos his-tuyg'ularning o'zaro munosabati talqinida erkak va ayol munosabatlarning oilaviy munosabat insonga xos tuyg'ularning

¹ Рейкавский.Я. Экспериментальная психология эмоций. –М:Прогресс. 1979.-С 46-49.

² Маковский М.М Историко-этимологический словарь современного английского языка. – М.Изаво Диалог. 2000. –С.45.

tipik namunalardan biri hisoblanadi. Inson tuyg'ulari orasida bog'lanish bo'lib, "do'stlik" tuyg'usining yadrosi

"muhabbat" sanaladi. Bir-biri bilan hurmat asosida tanishishga erishgan erkak va ayol o'rtasidagi ahillik, yaqinlik, mehr-muhabbat ana shu do'stlik tufayli paydo bo'ladi. Masalan, quyidagi misolga murojaat etaylik: *My friend is died, my neighbor is died, my love, the darling is my soul is died it is the inexorable consolidation and perpetuation of the secret that was always individually and which I shall carry in mine to my life's end.*¹ Ushbu holatni o'zbek tilidagi misol bilan isbotlashga harakat qilamiz. "Saodat shaharda qoldi, men qishloqqa keldim. Ketdimu shaharda yuragimning bir parchasi uzilib qolganday bo'ldi. Kunlar o'tib o'sha do'stlik muhabbatning debochasi ekanligiga iqror bo'ldim."² Har ikkala keltirilgan misollarda nafaqat do'stlik, balki yurak konseptining muhabbat tuyg'usi bilan aloqadorligi ham sezilib turadi. Ushbu holat o'zbek tilidagi misolning "Shaharda yuragimning bir parchasi uzilib qolgandek bo'ldi" qismida aks etganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga "yuragimning bir parchasi, muhabbatimning bir parchasi uzilib qolgandek bo'ldi" kabi pragmatic ma'no ham anglashilganganligiga amin bo'ldik. Misollar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, ikki jins o'rtasidagi muhabbat faqat ayol va erkak o'rtasidagina sodir bo'ladi. Erkak va ayol o'rtasidagi oilaviy munosabat bilan do'stlik konsepti o'rtasida aloqadorlik mavjud bo'lsada, ular o'rtasida o'ziga xos farqlar borligini ham kuzatish mumkin. "Muhabbat" konseptining izohlari paremiologik va badiiy asarlarda ikki shaxs mehr-muhabbatini aks ettiruvchi hikmatlarda ham o'z aksini topadi. Masalan: *Muhabbatda ko'z bo'lmaydi yurak bo'ladi, muhabbat ko'zda bo'lmaydi yurkada bo'ladi.*³

*Ingliz tilida: Love is blind, love is never without jealous.*⁴

Yuqorida keltirilgan misollardan shu ko'rinadiki, jar ikki tilda paremiologik fondga "do'stlik" bilan bog'liq paremiyalar qatlami umumiylikka, universalikka ega. Bu qatlam asosan maqol shaklidagi hikmatlar bo'lib, ular ko'pincha har ikki til semantikasi, hatto sintaktik strukturasi uchun ham deyarli mos keladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "muhabbat" bilan bog'liq bo'lgan mehr, sevgi kabi insonga

¹ Ch.Dickens. A tale of two cities. Website at <http://www.planetpdf.com>.-331p

² Said Ahmad. Mangulik qissasi.-T.:G'afur G'ulom nashriyoti. 1963.-172b.

³ Berdiyev X., Rasulov.R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati.-T.:O'qituvchi. 1984.-288b.

⁴ Кунин А.Б. Англо-русский фразеологический словарь. I том.-М.:СЭ.1984.-С.42.

xos mental qadriyatlarning semantic strukturasi jins va tur belgilarining birlashishida muhim asos hisoblanadi. Inson tuyg'ulari aks etgan konseptlar qadriyat tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, do'stlik, baxt, qalb konseptlari haqida navbatdagi ishlarimizda fikr yuritamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barsalou L.W. Framus, Concepts and conceptual fields, //-Hillsdale 1992,-P.21-24; Jackendoff.R. What is a concept? //Hillsdale 1992, - P.191; Jacobson R.O. Language is literature, London, 1987,-548 p; Langacker R.W. Concept, Image and Symbol; The cognitive basis of grammar, Berlin, 1991, -P.390.
2. Рейкавский.Я. Экспериментальная психология эмоций. – М:Прогресс. 1979.-С 46-49.
3. Маковский М.М Историко-этиологический словарь современного английского языка. – М.Изаво Диалог. 2000. –С.45. Ch.Dickens. A tale of two cities. Website at <http://www.planetpdf.com>.-331p
4. Said Ahmad. Mangulik qissasi.-T.:G'afur G'ulom nashriyoti. 1963.-172b.
5. Berdiyev X., Rasulov.R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati.-T.:O'qituvchi. 1984.-288b.
6. Кунин А.Б. Англо-русский фразеологический словарь. I том.-М.:СЭ.1984.-С.42.

SO'Z MA'NOLARINING INTENSIVLIGI

Haydarov Anvar Askarovich
(BuxDU professori)
Alimova Mubina
(II bosqich magistr)

So'z ma'nolarining intensivligi tilshunoslikda so'zlarning kontekstga qarab ma'no kuchini o'zgartirish imkoniyati bilan bog'liq bo'lib, bu mazkur tadqiqotda keng o'rganiladi. O'zbek va ingliz tillaridagi intensivlik tushunchalari bilan bog'liq asosiy nazariyalar o'zaro qiyosiy ravishda tahlil qilinadi. Intensivlik semantik maydon, kollokatsiyalar va kontekstual omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Maqolaning maqsadi – o'zbek va ingliz tillarida ma'no intensivligining turli ko'rinishlarini nazariy va amaliy misollar orqali yoritish.

Soʻz maʼnolarining intensivligi tushunchasi tilshunoslikda semantik va pragmatik omillar orqali oʻrganiladi. Tilshunoslar semantik maydonlar, kollokatsiyalar, kontekstual va fonetik usullar orqali soʻzlarning intensivligini aniqlashda muhim mezonlarni belgilaydilar.

Semantik maydonlar

Oʻzbek va ingliz tillarida soʻz maʼnolarining intensivligi turli kontekstual asoslarda ishlatiladi. Bu nazariya, asosan, soʻzlarning semantik toifasi va ularning intensiv darajalariga bogʻliq. Masalan, "katta" soʻzi oʻzbek tilida ijobiy va salbiy intensivlikni birdek anglatishi mumkin, lekin kontekstga bogʻliq ravishda mazmuni oʻzgaradi.

Ingliz tilidagi Misollar

"Strong" soʻzi: "strong wind" va "strong argument" kabi birikmalarda intensivlik ifodalanadi. Bu yerda "strong wind" kuchli shamolni anglatgan boʻlsa, "strong argument" dalilning kuchliligini bildiradi. Bu holat kontekstual intensivlikka misol boʻladi.

Oʻzbek tilidagi misollar

"Katta" soʻzi: "katta gap" (muhim gap) va "katta muammo" (katta qiyinchilik) birikmalarida har xil intensivlik anglatadi. "Katta gap" iborasida mazkur intensivlik soʻz maʼnosiga yangi rang qoʻshadi.

Kollokatsiyalar

Kollokatsiyalar orqali soʻz intensivligini tushunishda, ularning kontekstual va semantik oʻzgarishlari tahlil qilinadi.

Ingliz tilida: "heavy rain" (kuchli yomgʻir) va "heavy heart" (qaygʻuli yurak) iboralarida "heavy" soʻzi kontekstga qarab turli hissiyotlarni ifodalaydi.

Oʻzbek tilida: "katta yordam" (katta koʻmak) va "katta ahamiyat" (katta qiymat) birikmalari oʻzbek tilida intensivlik darajasini oshiruvchi vositadir.

Amaliy tadqiqotlarda soʻz intensivligi turli oʻxshash va farqli jihatlar asosida tahlil qilinadi. Ingliz va oʻzbek tillarida soʻzlarning intensivligi qanday ifodalanishini qiyosiy misollar orqali koʻrib chiqamiz.

Ingliz va oʻzbek tillarida qiyosiy tahlil

Ingliz va oʻzbek tillarida maʼno intensivligining koʻrinishlarini qiyosiy tahlil qilishda kontekstual omillar va kollokatsiyalarning roli katta. Quyidagi misollar yordamida ularning har birida maʼno intensivligi qanday shakllanishini tahlil qilamiz. Ingliz tilidagi misol: "strong

coffee" (kuchli qahva) va "strong personality" (kuchli shaxsiy sifat) birikmalarida "strong" so'zi har xil darajada kuchli intensivlikni ifodalaydi. Bu iboralar orqali so'zning semantik kuchayishi va pasayishi kuzatiladi. O'zbek tilidagi misol: "katta yordam" (katta ko'mak) va "katta ish" (muhim ish) birikmalarida "katta" so'zi o'zbek tilidagi semantik intensivlik darajasini oshiradi. Bu misollarda "katta" so'zi kontekstga qarab ma'no kengaytirish xususiyatiga ega.

Ingliz tilida so'z ma'nolarini kuchaytirishning kognitiv talqini bo'yicha Ziyayev A. o'z tadqiqotlarida tilning semantik va kognitiv komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganadi. Uning fikricha, so'zlarning ma'nosi inson fikrlashiga bog'liq bo'lib, so'z intensivligi ko'pincha madaniy va kognitiv omillarga qarab o'zgaradi. Misol uchun, ingliz tilidagi "heavy" so'zi turli madaniyatlarda turlicha qabul qilinishi mumkin. Abdullayev A. tadqiqotlarida o'zbek tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usullari haqida so'z yuritiladi. O'zbek tilida fonetik vositalar, masalan, so'zning urg'usi va takrorlanishi ma'no intensivligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, morfologik usullarda so'zning prefikslar va suffikslar bilan kengayishi intensivlikni oshiradi. So'zga ma'no qo'shuvchi yoki uni kuchaytiruvchi prefikslar (masalan, super-, hyper-, out-, over-, extra-, multi-, upper-, up-, mega-, micro-, sub-, mini-, is-, dis-) yordamida ma'no intensivligi oshirilishi mumkin. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida so'z intensivligining namoyon bo'lishi, bu intensivlikni oshirishda prefikslarning o'rni va qo'llanish usullari tahlil qilinadi. Nazariy yondashuvlarda mashhur olimlarning tadqiqotlari asosida prefikslarning semantik funksiyalari o'rganiladi.

Super va Hyper Prefikslar

"Super" va "hyper" prefikslari odatda yuqori darajadagi intensivlikni ifodalash uchun ishlatiladi va so'zga qo'shimcha kuch beradi. Bu prefikslar orqali so'zning semantik maydoni kengayib, ko'proq ta'sirli ifoda hosil qiladi.

Superpower: "The country is a superpower in global politics."
("Superpower" – dunyodagi katta siyosiy kuchni bildiradi.)

Hypercritical: "She was hypercritical of the minor mistakes in the report."
("Hypercritical" so'zi ortiqcha tanqidiy bo'lishni bildiradi.)

Out va Over Prefikslar

"Out" va "over" prefikslari odatda ustunlik yoki ortiqchalikni ifodalashda ishlatiladi. Bu prefikslar so'zga ustunlik yoki o'ta ko'pligini qo'shadi.

Outshine: "She managed to outshine all her colleagues." ("Outshine" – boshqalardan ko'ra yorqinroq bo'lishni anglatadi.)

Overreact: "He tends to overreact to small issues." ("Overreact" – ortiqcha reaksiya bildirishni anglatadi.)

Extra va Ultra Prefikslar

"Extra" va "ultra" prefikslari yuqori darajada kuchaytirilgan ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi.

Extraordinary: "The artist's skills are extraordinary." ("Extraordinary" – oddiydan yuqori darajadagi qobiliyatni bildiradi.)

Ultrasensitive: "This sensor is ultrasensitive to temperature changes." ("Ultrasensitive" – o'ta sezgirlikni anglatadi.)

Multi va Mega Prefikslar

"Multi" va "mega" prefikslari katta hajm yoki ko'plab birliklarni bildiradi.

Multinational: "They work for a multinational corporation." ("Multinational" – ko'plab millatlardan iborat korporatsiyani anglatadi.)

So'z ma'nolarining intensivligi tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, turli hissiy va semantik darajalarda qo'llanilishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada so'z intensivligini oshiruvchi prefikslarning tilshunoslikdagi o'rni va ular orqali so'z ma'nosining kuchayishi yoki pasayishi o'rganildi.

So'z ma'nolarining intensivligi mavzusi o'zbek va ingliz tillarida turli nazariy va amaliy yondashuvlar yordamida tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasida so'z intensivligini oshirishda semantik va fonetik vositalar asosiy rol o'ynashi aniqlandi. Ingliz va o'zbek tillarida intensivlik turli xilda namoyon bo'lsa-da, ularning lingvistik va kognitiv asoslari o'xshashdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Smith, J. (2015). Semantics and Word Intensity. London: Oxford University Press. –P. 45-60.
2. Muratov, A. (2020). O'zbek tilida so'z intensivligi va ma'no kengayishi. Toshkent: Adabiyot Nashriyoti. –B. 23-35.

3. Johnson, L. (2018). The Role of Context in Semantic Intensity. New York: Cambridge University Press. –P.120-130.
4. Karimov, Sh. (2019). Tilshunoslik nazariyasi: Ma'no va intensivlik. Toshkent: Fan Nashriyoti. –B.89-102.
5. Abdullayev, A. (2017). Hozirgi o'zbek tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usuli. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti. –B.15-28.
6. Yo'ldoshev, M. (2018). Badiiy matn va uning lingvistik tahlili asoslari. Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti. –B.42-57.
7. Ziyayev, A. (2020). Ingliz tilida so'z ma'nolarini kuchaytirishning kognitiv talqini. Toshkent: Xalqaro Universitet Nashriyoti. –B.101-115.

QIYOSLANAYOTGAN TILLARDAGI FONETIK VA GRAFIK USLUBIY VOSITALAR

Haydarov Anvar Askarovich

Ingliz tilshunosligi kafedrası professori

Sattorova Shaxrizoda Umedjon qizi

2-kurs magistratura talabasi

Abstrakt: Ushbu tezis ingliz va o'zbek tillaridagi fonetik va grafik uslubiy vositalar hamda turli tinish belgilariga bag'ishlangan. Bundan tashqari, ularning pragmatik ta'siri va funksional xususiyatlari ham misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: fonetik uslubiy vositalar, fonostilistika, bosh harf bilan yozish, qalin harflarda yozish, abbreviaturalar.

Fonografik uslubiy vositalarning tasnifi, konnotativ vazifalarini tadqiq etgan olim G.Yaxshiyeva talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirish, takror qo'llash, tushirib qoldirish, so'zda ularning o'zaro o'rnini almashtirish, yozma nutqda esa ushbu talaffuziy hodisalarni aynan aks ettirish fonografik jihatdan muhim uslubiy ahamiyatga egaligini ta'kidlasa, A.Haydarov tovushlar bilan bog'liq fonostilistik vositalarda uslubiy imkoniyatlar ko'pligi, ayrim so'zlarning ohang va fonetik qiyofasini o'zgartirish orqali hissiy ta'sirchanlik paydo bo'lishini qayd etadi. Hozirgi o'zbek tilida bir xil sharoitda undoshlarning cho'ziq va qisqa turlari o'zaro o'rin almashib, ma'noga ta'sir qilmasligi mumkin. Masalan, *maza-mazza*, *shaboda-shabboda*,

juda-judda, iki(iki so'm)-ikki, tepasida-teppasida, isimoq-issimoq kabi. Cho'ziq undoshlar geminatalar nomi bilan yuritiladi va u qisqa undoshga qarama-qarshi qo'yiladi. Geminatalar turkiy tillarda keyingi hodisa bo'lib, ikki yo'l bilan hosil bo'ladi:

- 1) oldingi qisqa undoshning ikkilanishi, cho'zilishi natijasida;
